



**OLIV TA'LIM MUASSASASI XODIMLARINING
RAG'BATLANTIRISH TIZIMINI MEYORIY HUIJATLARDA AKS
ETILISHI**

Oriental Universiteti

Ta'lim menejmenti yo'nalishi magistranti

X. Mamadaliyeva

Annotatsiya: *Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimi, jumladan, oliy ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarni hamda boshqa xodimlarni rag'batlantirish maqsadida hukumatimiz tomonidan bir nechta farmon, farmoyish va qarorlar qabul qilingan. Ushbu maqolada 10 ga yaqin meyoriy hujjatlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *oliy ta'lim, pedagog, farmon, rag'batlantirish, kasaba uyushmasi, mutaxassis.*

Аннотация: *В годы независимости в Узбекистане в системе образования, в том числе в системе высшего образования, были приняты несколько указов, постановлений и решений правительства с целью стимулирования профессорско-преподавательского состава и других сотрудников. В данной статье проанализировано около 10 нормативных документов.*

Ключевые слова: *высшее образование, педагог, указ, стимулирование, профсоюз, специалист.*

Annotation: *During the years of independence in Uzbekistan, several decrees, resolutions, and decisions have been adopted by the government to encourage professor-teachers, and other staff working in the education system, including higher education. This article analyzes nearly 10 regulatory documents.*

Keywords: *higher education, teacher, decree, motivation, trade union, specialist.*



O‘qituvchi – jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchlaridan biri bo‘lib, yosh avlodga bilim va tarbiya beruvchi eng muhim kasblardan biridir. O‘qituvchilarning jamiyatdagi roli talabalarga o‘rgatish bilan cheklanmaydi, balki ular insoniyatning kelajagini yaxshilashda beqiyos xizmat qiladilar.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ta’lim tizimi, istedodli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, o‘qituvchilarning pedagogik jarayonlardagi vazifalari, ularni rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida hukumat tomonidan bir nechta qonun hujjatlari qabul qilingan. Biz pedagoglar, oliy ta’lim tizimida faoliyat yuritayotgan ustoz va murabbiylarning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda rag‘batlantirishga qaratilgan bir nechta meyoriy hujjatlarni tahlil qilib chiqamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son, “Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2018-yil avgustdagi PF-5505-son farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash hamda professor-o‘qituvchilar va xodimlar mehnatini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan munosib rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish maqsadida 2020-yil 26-avgustda Vazirlar Mahkamasining “Respublika oliy ta’lim muassasalarining professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqidagi 517-sonli qarori tasdiqlangan [1]. Ushbu qarorning nizomi 4 bobdan iborat. Birinchi bob “Umumiy qoidalar” deb nomlanib, 15 ta banddan iborat. Unda oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritishi davomida yutuqlarga erishgan xodimlarga pul va ustamalar belgilash budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga amalga oshirish kerakligi; oliy ta’lim muassasasi faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirishga qo‘shgan shaxsiy hissasiga qarab berilishi; oliy ta’lim muassasasi rahbarlariga mukofotlar yuqori turuvchi tashkilotlarning tegishli qarorlari bilan berilishi; oliy ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan har yili professor-o‘qituvchi va xodimlarga moddiy rag‘batlantirish tartibi va hajmlarini belgilashi shart ekanligi; oliy ta’lim muassasasi rahbariyati yoki boshqa boshqaruv



organlari tomonidan butun bir jamoa, kafedra, fakultet, ilmiy laboratoriya va boshqa bo‘linmalar xodimlarini rag‘batlantirish tartibi; xodim erishgan yutuqlari to‘g‘risida noto‘g‘ri ma’lumot berganda, rag‘batlantirish bekor qilinishi; rag‘batlantirishni butun bir o‘quv yili davomida amalga oshirish mumkinligi; aniq bir xodim yoki jamoani mukofotlash miqdorining chegarasi; rag‘batlantirish to‘g‘risidagi buyruqni chiqishida rahbar, kasaba uyushmasi, yuqori turuvchi tashkilot tomonidan bajariladigan ishlar ketma-ketligi; birgina mehnat intizomining buzilishi belgilangan (yoki belgilanadigan) rag‘batlantirishni bekor qilishga asos bo‘lishi mumkinligi; oliy ta’lim muassasasi rahbarini qanday holatlarda ustamalarni bekor qilish yoki kamaytirish imtiyozlariga ega ekanligi; qanday hollarda oliy ta’lim muassasalari xodimlariga ularning murojaatiga asosan kasaba uyushmasi tashkilotining tashabbusi bilan oliy ta’lim muassasasining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moddiy yordam to‘lanishi; O‘n beshinchi bandida ish sifati yomonlashganda, topshiriqlar o‘z vaqtida bajarilmaganda, mehnat va ishlab chiqarish intizomi buzilganda ustamalarni bekor qilish yoki kamaytirish intizomiy jazo chorasi hisoblanmaydi deb ko‘rsatilgan.

Ikkinchi bob “Moddiy rag‘batlantirish miqdori va manbalari”ga bag‘ishlangan bo‘lib u ikkita banddan iborat. Birinchi bandida rag‘batlantirish miqdoriy ko‘rsatgichkari O‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tgan oliy ta’lim muassasalarida rag‘batlantirish turlari va miqdorlari moliyaviy imkoniyatdan kelib chiqib, mustaqil belgilanishi tartibi belgilab qo‘yilgan. Ikkinchi bandida to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘larning 30 foizdan ko‘p bo‘lmagan qisminigina birlamchi xarajatlardan keyin rag‘batlantirishga yo‘naltirish mumkinligini, Oliy ta’lim muassasalaridagi O‘zbekiston yoshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkilot yetakchisining maoshiga har oyda ellik foiz ustama qanday tartibda berilishi, Shuningdek, “Mehribonlik” uylari va Bolalar shaharchalarining tarbiyalanuvchilar bilan turli ko‘rinishdagi mashg‘ulotlar olib borgan yetakchi professor-o‘qituvchilarga ustama berish tartibi belgilangan.

Qarorning 3-bobida “Oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini moddiy rag‘batlantirishning asosiy mezonlari” talablari belgilangan bo‘lib uchta banddan iborat. Birinchi bandda oliy ta’lim muassasalarining



barcha xodimlarini rag'batlantirishga qo'yilgan quyidagi mezonlari keltirilgan: o'quv jarayonida taraqqiyotni belgilaydigan sohalarida maxsus kurslar tashkil etish; o'quv va o'quv-uslubiy ishlarning samaradorligi va sifatini ta'minlovchi o'qitishning ilmiy-metodik darajasiga ega bo'lish; o'qitishning faol usullaridan foydalanish va besh tashabbus yo'nalishlari bo'yicha yutuqlarga erishish; yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratish va ishlab chiqish; barcha turdagi ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etish va iqtidorli talabalar bilan turli ko'rinishdagi tanlovlarda faol qatnashish; o'quv jarayonida o'qitishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish va joriy etish, talabalarining mustaqil ta'lim olishini shakllantirish; oliy ta'limning dolzarb masalalari bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarida qatnashish va ularni o'quv-tarbiyaviy jarayoniga tatbiq etish; ilmiy-uslubiy kengashlar va o'quv-uslubiy birlashmalarda samarali ish olib borish va mutaxassislar tayyorlash bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish; maqolalar, monografiyalar va kitoblarni nashr etish; turli xildagi ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tadbirlarda faol ishtirok etish; doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilishda ijobiy natijalarga erishish; xorijiy tilda dars o'tish; oliy ta'lim muassasasi moddiy-texnika bazasini homiylik asosida mustahkamlash borasida shaxsiy tashabbus ko'rsatish; har bir xodimning berilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarishi hamda jamoat ishlarida faol qatnashishi kabilar.

Ikkinchi bandida esa Oliy ta'lim muassasasi rahbarlarini rag'batlantirishda quyidagi mezonlar belgilab qo'yilgan: tayyorlangan mutaxassislarning sifat ko'rsatkichlari; professor-o'qituvchilarning ilmiy salohiyati bo'yicha tarkibi va ularning malakasini oshirganlik darajasi, oliy ta'lim muassasasida faoliyat yuritayotgan xorijdan jalb qilingan malakali professor-o'qituvchilarning (mutaxassis) salmog'i; O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qo'shgan ilmiy salohiyati; oliy ta'lim muassasasidagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish darajasi va budjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish usullari; ta'lim muassasasining daromadlari va xarajatlari smetasining ijrosi natijalari (oxiri yillar o'sish dinamikasi tahlili asosida); yuqori tashkilotlarga oliy ta'limni isloh qilish hamda milliy iqtisodiyot va madaniyatni rivojlantirish muammolari bo'yicha takliflar



kiritish; oliy ta'lim muassasasida jamoaning ma'naviy, axloqiy va psixologik muhitining holatiga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri.

Uchinchi bandida xodimlarning ilg'or tajribasini va faoliyati samaradorligini ommaviy axborot vositalarida yoritish hamda oliy ta'lim muassasasi veb-saytiga joylashtirish zarurligi belgilab qo'yilgan.

Nizomning to'rtinchi bobida yakuniy qoidalar berilgan. U to'rtta banddan iborat. Ushbu bandlarda oliy ta'lim muassasasining shtatdagi xodimlariga mehnatga haq to'lashning amaldagi tizimida nazarda tutilgan rag'batlantirish bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa to'lovlar ham qo'llanilishi mumkinligi; ustama haqlarini qat'iy mezonlarga muvofiq belgilash va to'lash uchun javobgarlik oliy ta'lim muassasasi rahbari zimmasiga yuklatilishi; ushbu Nizomni qo'llashda yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etilishi; Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob berishi belgilangan.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarining barcha xodimlarini moddiy rag'batlantirish Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgustdagi 517-son Qaroriga [2] asosan amalga oshiriladi. Bu qaror qabul qilingunga qadar ham oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibi mavjud edi. Jumladan quyidagilar:

1995-yil 31-mayda Viloyatlar markazlarida tashkil etilgan oliy o'quv yurtlarida mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ularning ilmiy-intellektual potensialini va moddiy-texnika bazasini mustahkamlash maqsadida "O'zbekiston Respublikasi mintaqaviy oliy o'quv yurtlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 196-sonli Qarori qabul qilingan lekin, mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-fevraldagi 87-sonli "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali



mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni)"gi Qaroriga [3] asosan o'z kuchini yo'qotgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 24-iyuldagi "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-926-sonli Qarori [4] da Oliy ta'lim muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirish va ta'lim-tarbiya ishlari darajasi hamda sifatini oshirishda ularni moddiy rag'batlantirishning samarali mexanizmini joriy etish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari hamda sohalarida ehtiyoj sezilayotgan yuqori malakali, raqobatdosh kadrlar tayyorlashda professor-o'qituvchilar tarkibi qo'shayotgan hissassi munosib baholanishini ta'minlash ko'zda tutilgan. Mazkur Qaror yettita baddan iborat bo'lib, birinchi badda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Moliya vazirligining 2008-yil 1-sentabrdan boshlab oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlarining maoshlariga doimiy ustama va qo'shimcha to'lovlarni qo'shgan holda takomillashtirilgan tizimini joriy etish to'g'risidagi takliflari ma'qullanishi, ikkinchi badda oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibi va rahbar xodimlariga joriy etilayotgan bazaviy lavozim maoshlarini o'rtacha 25 foiz miqdorida, jami esa 1,5 barobarga oshirishi, uchinchi badda xodimlarning lavozim maoshlariga alohida ish sharoitlari, xorijiy tillarni bilishi, muayyan xizmat muddatini ado etganligi uchun qo'shimcha haq to'lash va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa qo'shimcha haq to'lashning amaldagi turlari va miqdorlari saqlab qolinishi, to'rtinchi badda esa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, oliy ta'lim muassasalariga ega bo'lgan vazirliklar va idoralar mazkur qarorda belgilangan tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarning o'z vaqtida va to'liq moliyalashtirilishini ta'minlanishi lozimligi belgilab qo'yilgan. Beshinchi badda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda bazaviy lavozim maoshlarini, nizomni tasdiqlashi lozimligi, oltinchi badda esa O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar



bilan bir oy ichida ushbu qaror yuzasidan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar berilishi belgilab qo'yilgan.

“Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida”[5] gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 164-sonli Qarori 2008-yil 1-avgustda qabul qilingan. 164-sonli PQ-926-son qarorni bajarish yuzasidan qabul qilingan. Qaror jami olti banddan iborat. Birinchi bandda 2008-yil 1-sentabrdan maoshlarni oshirilgan miqdorda to'lanishi, ikkinchi bandida Oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash to'g'risidagi Nizom 4-ilovaga muvofiq belgilanishi, yordamchi xodimlarining mehnatiga haq to'lash razryadlari tasdiqlangan. Uchinchi bandida oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini joriy etish bo'yicha zarur tushuntirish ishlarini va tashkiliy ishlarni amalga oshirilishi belgilangan. To'rtinchi bandida tizimida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralarning kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga qarab bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni nisbati tuzilgan, oliy ta'lim muassasasi kengashlariga, zarur hollarda, mazkur nisbatlarni 50 foizgacha o'zgartirish vakolatini berish belgilangan. Beshinchi bandida qanday tartibda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish ko'rsatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori [6] ning birinchi bandida oliy ta'lim tizimini kelgusida yanada takomillashtirish va kompleks rivojlantirish bo'yicha eng muhim vazifalar qatorida har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni



tashkil qilish, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish kabilar keltirilgan. Mazkur Qarorning uchinchi bandida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga ikki oy muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yosh pedagog va ilmiy xodimlar malakasini oshirish bo'yicha "Iste'dod" fondining faoliyatini tubdan qayta ko'rib chiqish bo'yicha takliflar tayyorlash vazifasi qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarorining 4/g bandida 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining vaqtini o'quv jarayoniga xos bo'lmagan ishlarga sarflashning oldini olish hamda ularni talabalar bilan ko'proq ishlashga yo'naltirish, shu jumladan "ustoz — shogird" tizimini joriy etish maqsadida o'quv yuklamalarini hisobga olgan holda professor-o'qituvchilar "vaqt me'yorlari"ning yangi mexanizmlarini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlangan. Beshinchi bandida Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilarini ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etish taqiqlanishi yozib qo'yilgan.

2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan O'RQ-637-sonli "Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni [7] ning 7-bo'limi 53-moddasida (Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish) pedagoglarga quyidagi imtiyozlar belgilangan: a) Ta'lim tashkilotlarining xodimlarini ijtimoiy himoya qilish davlat tomonidan kafolatlanadi. b) Ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlariga qisqartirilgan ish vaqti davomiyligi belgilanadi, haq to'lanadigan har yilgi uzaytirilgan ta'til va boshqa imtiyozlar va kafolatlar taqdim etiladi. d) Ta'lim tashkilotlarining pedagog va boshqa xodimlariga sanitariya-gigiyenaga oid, epidemiyaga qarshi hamda profilaktika choralari bilan amalga oshiriladigan sog'liqni saqlash kafolatlanadi. e) Ta'lim tashkilotlari mehnatga haq to'lash uchun mavjud bo'lgan mablag'lar doirasida mustaqil ravishda ish haqiga, lavozim maoshlariga



tabaqalashtirilgan ustamalar belgilashga va mehnatga haq to'lash hamda uni rag'batlantirishning turli shakllarini qo'llashga haqli.

2024-yil 1-fevralda qabul qilingan "Pedagogning maqomi to'g'risida" O'RQ-901-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni [8] 21 moddadan iborat bo'lib, uning 13-moddasida "Pedagoglarni rag'batlantirish" masalasi belgilab qo'yilgan. Yani, pedagog belgilangan tartibda davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi mumkin, xalqaro va respublika olimpiadalari g'oliblarini tayyorlaganligi uchun mukofot pullari, budjet mablag'lari va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan amaldagi qonunchilikka muvofiq moddiy rag'batlantirishning boshqa turlari bilan mukofotlanishi mumkin. 14-moddasida esa pedagoglarning ijtimoiy himoya qilish masalasi yoritilgan.

Hukumatimiz tomonidan oliy ta'lim tizimi, unda faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar va boshqa xodimlarni o'z ustilarida ishlashlari, ularni rag'batlantirish shart-sharoitlari, xususan, ijtimoiy himoya tizimi qonun, qaror, va qonunosti hujjatlari bilan tasdiqlangan. Bundan ko'zlangan yagona maqsad yurtimiz kelajagi uchun yetuk kadrlarni yetishtirib berayotgan professor-o'qituvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularni jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Lex.uz Vazirlar Mahkamasining Respublika oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari va boshqa toifadagi xodimlarini budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 517-sonli qarori
2. <https://lex.uz/docs/-4969845>
3. <https://lex.uz/docs/-5300195>
4. Lex.uz Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish va uni moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-926-sonli qarori
5. Lex.uz "Respublika oliy ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning takomillashtirilgan tizimini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 164-sonli Qarori



Lex.uz “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son. 2017-yil 20-aprel.

6. <https://lex.uz/docs/-5013007>

7. <https://lex.uz/docs/-6786401>